


## FARG'ONA VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-aprel dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4 288,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-aprel oylarida 89,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 491,7 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 92,1 % ga), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 797,2 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 302,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 81,9 %) ni tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




2020-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Quva (94%) Beshariq (93,9%), Buvayda (93,4%) va Furqat (93,0%) tumanlarida, shuningdek (91,8%) Marg'ilon, (92,4%) Quvasoy shaharlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%) da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan 11,6 % ga kamaygan va 471,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,5 % ulushiga to'g'ri keladi. kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 797,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 11,0 % ga kamaygan. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,0 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%) da



## Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi, (%) da



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa (99,8 %), Farg'ona (99,4 %), So'x (99,1 %) va Furqat (98,1 %) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko'rinib turibdi.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,0 % ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg'ona (24,6 %), Qo'qon (17,0 %) va Quvasoy shahrida (8,0 %) da kuzatilgan.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd.so'm)	2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Farg'ona viloyati shaharlar</b>	<b>491,7</b>	<b>92,1</b>	<b>3 797,2</b>	<b>89,0</b>

Farg'ona	287,9	98,2	849,8	85,1
Qo'qon	108,1	91,8	519,6	86,0
Quvasoy	8,0	111,1	91,5	91,0
Marg'ilon	18,0	60,1	330,1	94,5
<b>tumanlar</b>				
Oltiariq	5,6	91,1	155,8	91,0
Qo'shtepa	0,5	168,3	250,2	86,0
Bag'dod	10,7	52,5	139,3	95,9
Buvayda	3,7	141,7	146,0	92,6
Beshariq	2,9	93,7	136,3	93,9
Quva	11,1	118,7	200,4	92,9
Uchko'prik	9,3	345,3	157,7	86,3
Rishton	5,0	49,0	102,2	94,3
So'x	0,6	179,1	63,5	87,2
Toshloq	7,9	82,3	96,9	87,9
O'zbekiston	3,8	106,4	117,1	92,3
Farg'ona	0,9	10,1	144,9	92,5
Dang'ara	2,9	103,8	96,6	90,1
Furqat	1,4	114,1	68,4	92,6
Yozyovon	3,4	73,4	130,9	87,8

### Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%) da



2020-yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1141,0 ming so'mni tashkil qilib, 2019-yilning yanvar- aprel oylariga nisbatan 87,7 % ni tashkil etgan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar- aprel

oylariga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (3931,1 ming so'm), Qo'qon (2478,9 ming so'm) va Marg'ilon (1478,5 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston (507,5 ming so'm), Toshloq (522,2 ming so'm) va Rishton (532, ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1141,0</b>	<b>87,7</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	3931,1	86,6
Qo'qon	2478,9	85,6
Quvasoy	1065,3	90,8
Marg'ilon	1478,5	90,3
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	765,3	89,4
Qo'shtepa	1322,3	84,4
Bag'dod	698,7	88,6
Buvayda	659,3	91,5
Beshariq	611,7	92,2
Quva	821,4	92,3
Uchko'prik	732,9	88,3
Rishton	532,5	88,8
So'x	823,3	86,0
Toshloq	520,3	85,7
O'zbekiston	507,5	90,9
Farg'ona	686,2	86,4

Dang'ara	575,0	88,6
Furqat	594,0	91,6
Yozyovon	1218,2	85,6

Jumladan, 2020-yilning yanvar-aprel oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,4 % ni tashkil etib, 58,8 mlrd. soʻmga yetdi yoki 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 21,7 % ga kamaygan. Bunda jami savdo aylanmasining 73,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga toʻgʻri kelmoqda.

### Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmi (mlrd. soʻm)



2020-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasidagi ulushi kuzatilib, nisbatan, Farg'ona (33,7 %), Qo'qon (7,7 %), Marg'ilon (4,2 %) shaharlarida qayd etildi.

### UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI DEHQON VA CHORVA BOZORLARI

2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 38 162,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (12 047,2 mlrd. so'm) to'g'ri keldi. SHulardan ayrimlarini suratlar ko'rinishida kuzatamiz.



**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**




**Tuzlamalar**



**Tuxum**



**Sut va sut  
mahsulotlari**



**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)**

2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 3 119,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 2 289,5 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 804,7 mlrd. so'mni, otlar 6,1 mlrd. so'mni, parrandalar 19,8 mlrd. so'mni tashkil etdi

### FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-aprel)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 114,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 11,9 % ga kamaygan.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'p 846,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 87,8 % ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 87,3% ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon, Quvasoy shahar, Qo'shtepa, Buvayda, Beshariq (100,0 %) hamda Dang'ara (99,8 %) ,Uchko'prik (99,7%) va Oltiariq (98,8 %), tumanlarida yuqori bo'lgan.

#### Yirik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridagi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)

Tuman shaharlar nomi	Yirik korxonalarining ulgurji savdodagi ulushi	kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridagi tovar aylanmasidagi ulushi
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>12,7</b>	<b>87,3</b>
<b>shaharlar</b>		
Farg'ona	43,5	65,5
Qo'qon	15,1	84,9
Quvasoy	-	100,0
Marg'ilon	-	100,0
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq	1,2	98,8
Qo'shtepa	-	100,0
Bag'dod	27,2	72,3
Buvayda	-	100,0
Beshariq	-	100,0
Quva	-	100,0
Uchko'prik	0,3	99,7
Rishton	1,7	98,3
So'x	3,7	96,3
Toshloq	0,3	99,7
O'zbekiston	-	100,0
Farg'ona	-	100,0





## FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Dang'ara	0,2	99,8
Furqat	-	100,0
Yozyovon	0,4	99,6

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 12,7 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Farg'ona shaharda (34,5 %), Bog'dod tumanida (27,7 %), hamda Qo'qon (15,1 %) shahrlarda kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	2019- yilning yanvar- aprel oylariga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan, % da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2114,6</b>	<b>88,1</b>	<b>267,9</b>	<b>75,8</b>	<b>1846,7</b>	<b>90,3</b>
<b>shaharlar</b>						
Farg'ona	630,7	84,6	217,4	67,8	413,3	97,1
Qo'qon	302,3	98,0	45,7	256,1	256,6	88,3
Quvasoy	35,3	87,2	-	-	35,3	87,2
Marg'ilon	321,5	90,3	-	-	321,5	90,4
<b>tumanlar</b>						
Oltiariq	46,9	89,6	0,6	349,3	46,4	88,9
Qo'shtepa	2,7	85,6	-	-	2,7	85,6
Bag'dod	11,0	58,3	3,0	26,5	8,0	107,5
Buvayda	32,5	88,3	-	-	32,5	88,3
Beshariq	29,7	89,4	-	-	29,7	89,4
Quva	17,4	86,7	-	100,0	17,4	86,7
Uchko'prik	79,1	86,0	0,2	27,8	78,9	86,5
Rishton	11,9	89,4	0,2	66,0	11,7	90,0
So'x	1,5	94,5	0,1	81,0	1,4	95,1
Toshloq	116,8	86,3	0,3	20,9	116,5	87,0
O'zbekiston	319,4	87,3	0,1	180,6	319,2	87,3
Farg'ona	22,6	92,9	-	0,0	22,6	94,0
Dang'ara	96,4	87,9	0,2	50,8	96,2	88,0
Furqat	12,7	86,2	-	-	12,7	86,2
Yozyovon	24,2	88,6	0,1	51,9	24,1	88,9

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%) da



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Farg'ona shaharda (84,6 %) va Ba'gdod (58,3 %) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi

Tel.:73-249-87-18